

**TIJORAT BANKLARIDA ISTE'MOL KREDITLARINI SAMARALI  
BOSHQARISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI  
(O'ZSANOATQURILISHBANK AJ TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)**

*Yusupova Nazokat Uzakbayevna*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi*

*Biznesni boshqarish (Master of Business Administration-MBA)*

*Banking 23-02-guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Jahonda kreditlarning turli xillari mavjud. O'zbekistonda ham ko'plab kredit maxsulotlari bor. Bugungi kunda ommabop bo'lgan iste'mol kreditlari ham yildan-yilga o'z xilma-xilligini oshirib bormoqda. Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan iste'mol kreditlari va ularni takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В мире существует большое разнообразие кредитов. В Узбекистане также много кредитных продуктов. Популярные сегодня потребительские кредиты также с каждым годом увеличивают свое разнообразие. В этой статье рассматриваются потребительские кредиты, предлагаемые коммерческими банками, и вопросы их улучшения.

**Abstract:** There is a wide variety of loans in the world. There are also many credit products in Uzbekistan. Consumer loans, which are popular today, are also increasing their variety every year. This article examines consumer loans offered by commercial banks and how they can be improved.

**Kalit so'zlar:** Tovarli iste'mol krediti, moliyaviy iste'mol krediti, bo'lib to'lash

**Ключевые слова:** товарный потребительский кредит, финансовый потребительский кредит, рассрочка

**Keywords:** commodity consumer credit, financial consumer credit, installment plan

### **Kirish**

Bank iste'mol kreditlari mamlakatimizning barcha banklari taklif etadigan bank xizmati turi bo'lib, ular O'zbekistonda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarini xarid qilish maqsadida ajratiladi:

- maishiy-texnika, komp'yuter, radio va elektrotexnika;
- mebel' va uy-joy jihozlari;
- dam olish va davolanish maskanlariga yo'llanma;
- avtotransport vositalarini sotib olish;
- marosimlar (to'y, yubiley) o'tkazish;

Iste'mol krediti har bir bankning ichki tartibiga asosan ajratiladi. Kredit mahsulot va xizmat yetkazib beruvchining hisobvarag'iga pul ko'chirish yo'li bilan ajratiladi.

Shuningdek, ba'zi banklar kredit uchun garov ta'minoti (ko'chmas va ko'char mulk, sug'urta polisi) talab etadi. Aksariyat hollarda iste'mol kreditlari uchinchi shaxsning (masalan, doimiy daromadga ega bo'lgan hamkasbingiz, o'rtog'ingiz yoki qarindoshingiz) kafilligi ostida ajratiladi.

*Banklar iste'mol kreditlarini o'rtacha 22%-28% stavkalaridan, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatlarda taklif etadi. Ba'zi banklarda shartnomaning 20%-25% miqdorigacha boshlang'ich badal qo'yilishi ko'zda tutilgan. Kreditni so'ndirish kamayib borish tartibida yoki oyma-oy bir xil miqdordagi to'lovlar (annuitet) asosida amalga oshirilishi mumkin.*

### **Muhokama va natijalar**

#### **Kredit uchun qaday hujjatlar taqdim etiladi?**

- Ariza;
- pasport / identifikasiya ID-kartasi / yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi/ harbiy bilet nusxasi;;
- olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnoma (so'nggi 12 oylik, ba'zi banklarda so'nggi 6 oylik);
- mahsulot yoki xizmat yetkazib beruvchi bilan imzolangan shartnoma;
- kredit ta'minoti hujjatlari (uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polisi yoki garov mulki).

Iste'mol krediti bo'yicha barcha ma'lumotlarni banklarning veb-saytidan topishingiz, kredit bo'yicha barcha harajatlarni kredit kal'kulyatori yordamida onlayn hisoblashingiz mumkin. Ba'zi banklarning veb-sayti orqali iste'mol krediti uchun onlayn ariza topshirishingiz ham mumkin.

Shu o'rinda aytish joizki, sizga kichik miqdorda kredit zarur bo'lsa, overdraft kreditini yoki bank kredit kartasini rasmiylashtirish imkoniyatingiz ham mavjud. O'z navbatida, bunday kreditlarning foizlari va kredit shartlari iste'mol krediti shartlaridan tubdan farq qilishi mumkin.

#### **Do'konda "Bo'lib-bo'lib to'lash"**

Hozirgi kunda, ko'chalarda "Mahsulotlar bo'lib to'lashga kreditga beriladi" mazmunidagi e'lon va reklamalarga ko'zimiz tez-tez tushadi. Bunda, Creditasia.uz, Texnomart.uz, Mediapark.uz, Easymarket.uz, Crediton.uz kabi elektron do'konlar iste'mol kreditlarini tez, oson va masofadan turib rasmiylashtirilishini targ'ib qilgan holda sizdan faqatgina:

- pasportingiz nusxasi;
- ish joyingizdan oylik daromadingiz to'g'risidagi ma'lumotnomani talab etadilar.

Iste'molchi o'ziga jalb etuvchi bunday taklifga osongina ko'nishi mumkin. Keling, bugungi kunda bozor narxi 3,5 mln. so'mlik Artel HD341FN muzlatkichini kredit va "bo'lib-bo'lib to'lash"ga sotib olinganda muzlatkichning asl bahosi qanchaga tushishini amaliy hisob-kitoblarda ko'rib chiqamiz

| Kredit                                   |                  | Bo'lib-bo'lib to'lash               |                  |
|--|------------------|-------------------------------------|------------------|
| Annuitet grafigi asosida oyluk to'lov    | 330 958          | Oyma-oy to'lov                      | 399 000          |
| Kredit muddati                           | 12 oy            | Bo'lib to'lash muddati              | 12 oy            |
| Kredit foizi                             | 24%              |                                     |                  |
| Kredit bo'yicha jami to'lov              | <b>3 971 503</b> | Telefonning 12 oydan keyingi bahosi | <b>4 788 000</b> |
| Ta'minot xarajatlari                     | 0                |                                     |                  |
| <b>Muzlatkich bozor narxiga nisbatan</b> | <b>13%</b>       |                                     | <b>37%</b>       |

1-rasm. Kredit kalkulyatori asosida iste'mol kreditini hisoblash metodikasi

Demak, do'kondan "bo'lib-bo'lib to'lash"ga olgan mahsulotingiz kreditga nisbatan ancha qimmatga tushadi. Iste'mol krediti mijoz mahsulot yoki xizmatni sotib olgan tashkilotning hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan taqdim etiladi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik banklarda yil oxiri sababli kreditlash to'xtatilganligiga qaramay, 2023-yil dekabr holatiga ko'ra, **35 ta bankdan 14 tasida** iste'mol kreditlarini rasmiylashtirish mumkin, Quyidagi jadvalda tijorat banklarining barcha iste'mol kreditlari bo'yicha batafsil ma'lumot keltirilgan.

|     | Bank                   | Foiz stavkasi | Kredit muddati | Maksimal summa    |
|-----|------------------------|---------------|----------------|-------------------|
| 1.  | Asia Alliance bank     | 23.99%        | 1 yil          | 170 mln           |
|     |                        | 25.99%        | 3 yil          |                   |
| 2.  | Hamkorbank             | 32%           | 2 yil          | 68 mln            |
|     |                        | 36%           | 3 yil          |                   |
| 3.  | Infin bank             | 37.99%        | 1.5 yil        | 34 mln            |
| 4.  | Ipoteka-bank OTP Group | 26%           | 4 yil          | 51 mln            |
| 5.  | Madad Invest bank      | 33%           | 1 yil          | Shartnomaga ko'ra |
|     |                        | 36%           | 5 yil          |                   |
| 6.  | MKBank                 | 27%           | 4 yil          | 80 mln            |
| 7.  | O'zmilliybank          | 26%           | 2 yil          | 68 mln            |
|     |                        | 27%           | 3 yil          |                   |
| 8.  | Orient Finans bank     | 26%           | 3 yil          | 50 mln            |
| 9.  | Poytaxt bank           | 27%           | 2 yil          | 68 mln            |
| 10. | Saderat bank           | 26%           | 3 yil          | 680 mln           |

|     |  |       |       |         |
|-----|--|-------|-------|---------|
| 11. | Trastbank  | 25%   | 1 yil | 68 mln  |
|     |  | 27%   | 2 yil |         |
| 12. | Turonbank Iste'mol krediti                         | 29%   | 3 yil | 102 mln |
|     | Turonbank Sayohat iste'mol krediti                 | 29%   | 1 yil | 21 mln  |
|     | Turonbank Sog'liqni tiklash uchun iste'mol krediti | 27%   | 3 yil | 50 mln  |
| 13. | Universal bank                                     | 32%   | 3 yil | 68 mln  |
|     | Universal bank Turizm krediti                      | 30%   | 3 yil | 68 mln  |
| 14. | Ziraat bank  | 23.5% | 1 yil | 102 mln |
|     |  | 24.5% | 2 yil |         |
|     |  | 25.5% | 3 yil |         |

Shuningdek, bugungi kunda bir qator banklar qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va energiya tejash tizimlarini imtiyozli shartlarda sotib olish uchun iste'mol kreditlarini ajratishni yo'lga qo'ygan.

|     | Bank  | Foiz stavkasi | Kredit muddati | Maksimal summa |
|-----|---|---------------|----------------|----------------|
| 1.  | Agrobank Yashil energiya krediti                      | 20%           | 5 yil          | 100 mln        |
| 2.  | Asia Alliance bank Muqobil energiya krediti           | 20%           | 5 yil          | 74.8 mln       |
| 3.  | Biznesni rivojlantirish banki Yashil energiya krediti | 20%           | 5 yil          | 170 mln        |
| 4.  | Davr bank Yashil energiya                             | 20%           | 5 yil          | 150 mln        |
| 5.  | Infin bank Infin Green                                | 20%           | 5 yil          | 60 mln         |
| 6.  | Ipoteka-bank OTP Group "GREEN" krediti                | 19%           | 5 yil          | 102 mln        |
| 7.  | Kapitalbank Ekokredit                                 | 20%           | 5 yil          | 50 mln         |
| 8.  | Madad Invest bank Green Power krediti                 | 24.99%        | 5 yil          | 68 mln         |
| 9.  | MKBank Saving energy                                  | 20%           | 5 yil          | 170 mln        |
| 10. | O'zmilliybank National Green krediti                  | 22%           | 5 yil          | 60 mln         |
| 11. | Orient Finans bank Green krediti                      | 20%           | 5 yil          | 100 mln        |
| 12. | Trastbank   | 22%           | 5 yil          | 68 mln         |
| 13. | Turonbank Ecopanel krediti                            | 20%           | 5 yil          | 66 mln         |
| 14. | Ziraat bank Yashil Komfort krediti                    | 20%           | 3 yil          | 102 mln        |
|     |   | 21%           | 5 yil          |                |

Xulosa shuki, iste'mol krediti mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va banklar istiqboli uchun ustuvor masala bo'lib qaraladi. Iste'mol kreditiga bo'lgan talabning oshishi ro'yxatdan o'tishning soddaligi bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu turdagi kreditlar bank muassasalari uchun asosiy ish yo'nalishi bo'lib ham hisoblanadi. Iste'mol krediti iqtisodiy bozorning alohida sohasi bo'lib, unda kredit resurslarini bank tashkilotlari, jismoniy shaxslar va ushbu sohaga tegishli tashkilotlar o'rtasida tezkorlik va to'lov shartlarida qayta taqsimlashga qaratilgan turli operatsiyalar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlar uchun mablag'larnimoliyaviy tashkilotlar va kredit kooperativlaridan ham olish mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-maydagi "Iste'mol krediti to'g'risida"gi O'RQ-33-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/10046872>.
2. Комиссарова М.В., Даниленко С.А. Банковское потребительское кредитование. Учебно-практическое пособие. -М.: Юстицинформ, 2011. -с. 11. ISBN 978-5-7205-1092-3.
3. Лаптева Е.В. Кредитование физических лиц в Российской Федерации: статистический аспект и прогнозирование. –Волгоград: Изд-во «Сфера», 2022.-с. 14.